

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No1

2026
yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 303 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afurovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
Каракулов Фарход Зайпудинович	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	33
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH	38
Achilov Ilmurad Nematovich	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li	
КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ	51
Алиева Сусанна Сейрановна	
ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОВЦЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ	58
Нуриллаев Жамолiddин Ярашевич	
BARQAROR INVESTITSİYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI	65
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA.....	71
Ashurova Oltin Yuldashevna	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	78
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	84
Bekmurod Davlatmurotovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	89
Atajanov Kamal Atavayevich	
AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI	96
Pirmatov Nurali Berdiyrovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o'g'li	
O'ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL	101
Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA AMALIY MEKANIZMLAR	108
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	113
Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL MODELI.....	120
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	



GEODEZIYA VA GIS TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI.....	125
Ziynura sabirova	
RESPUBLIKADA UY-JOY QURILISHI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING O'RNI	129
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА АО «УЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙУЛЛАРИ» В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ РЕФОРМ.....	133
Кадилова Шарофат Амоновна	
KASBLARNI MODERNIZATSIYA QILISH VA MEHNAT BOZORINING YANGI MODELINI BARPO ETISH	139
Ruziyev Oybek Abdumuminovich, Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL BIZNESINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	143
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
QISHLOQ JOYLARIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	148
Amaniyazova Rayhan Bayniyazovna	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭКСПЛУАТАЦИОННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МАЛОМОЩНЫХ СЕТЕВЫХ СОЛНЕЧНЫХ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СТАНЦИЙ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	153
Кудратов Афзалхужа Рустамович, Далмурадова Наргиза Нуриллаевна, Шогучкаров Санжар Кодирович	
MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	161
Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich	
INNOVATSION BANK EKOTIZIMLARINING TIJORAT BANKLARI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	165
Aliyev Hasan Rayimjonovich	
ANALYSIS OF FACTORS OF INTENSIVE ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN	171
Sharipov Kamil	
SUN'IY INTELLEKT – TO'RTINCHI SANOAT INQILOBINING ASOSI.....	176
Kalonov Muxiddin Baxriddinovich	
KORXONALARDA MOLIVAVIY BOSHQARUVNING TASHKILY VA IQTISODIY MASALALARI	187
Jumayev Samariddin Ziyodullaevich	
YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINI OSHIRISH YO'LLARI	193
Isroilov Dilshodbek Rustamovich	
TALABALARDA O'Z-O'ZINI TARTIBGA SOLISH KO'NIKMALARINING RIVOJLANISHIDA INTERAKTIV TA'LIM PLATFORMALARINING O'RNI	198
Bozorova Muazzam Hamid qizi, Hakimova Gulnora Abdullo qizi, Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI NAZORATNING XORIJIY TAJRIBASI	203
Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich	
XORAZM VILOYATIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINING O'ZGARISHI VA BU JARAYONGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	208
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
IQTISODIY-MATEMATIK VA SSENARIYLI YONDASHUVLARDAN FOYDALANIB SANOAT RIVOJLANISHINI BAHOLASH VA PROGNOZLASH	213
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich, Qayumova Nurafshona Ulug'bek qizi	
EKSPORTNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINING DOLZARBLIGI	217
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich, Mutalov Sultonbek Abduraim o'g'li, Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Ubaydullayeva Gulchexra Erkabayevna, Aipova Iroda Ikramovna	



LEGAL AND INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF ECONOMIC COOPERATION BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS	222
Yovkochev Sherzod	
ICHKI AUDIT FUNKSIYALARINING ICHKI NAZORATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	228
Tursunov Shohruxmirzo Baxtiyor o'g'li	
MOSH DONINI YANCHIB Olishda qo'llaniladigan qurilmani loyihalash	232
Qurbanov Abdimalik Jo'rayevich	
DAVLAT BOSHQARUVIDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH: INSTITUTIONAL MECHANISMS, RAQAMLI YECHIMLAR VA AMALIY KUTILMALAR	239
Sarvar Saidov Xayrulloevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI DOIRASIDA UNING INFRATUZILMASINI TASHKILIY-IQTISODIY MECHANISMS TAKOMILLASHTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	244
Tashov Mizrob Maxmudovich	
DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARIDA INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MECHANISMS	251
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	
ФИНАНСЫ И ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА В КОНТЕКСТЕ ГЛОБАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	257
Айматова Фарида Хуразовна	
ZAMONAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA RAQAMLI TECHNOLOGIYALARNING ROLI	263
Salayeva Dilafro'z Aybekovna	
ДИАГНОСТИКА синхронного двигателя на основе измерения внешнего магнитного поля	267
Пирматов Нурали Бердярович, Бекишев Аллаберген Ергашевич, Мамуров Алмас Жумабой угли	
XORIJIIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI VA XUSUSIYATLARI	275
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА СТОИМОСТИ КОМПАНИИ В СДЕЛКАХ СЛИЯНИЙ И ПОГЛОЩЕНИЙ	279
Ли Илларион Георгиевич	
KO'P YADROLI CPU VA GPU ARXITEKTURALARIDA DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI SONLI YECHISH UCHUN PARALLEL ALGORITMLARNI ISHLAB CHIQUISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH	284
Ismailov Shixnazar Rashid o'g'li, Ubaydullayev Farrux Fathulla o'g'li, Odilov Asliddin Isoq o'g'li	
СИСТЕМАТИЧЕСКОЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ — ОСНОВА ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭКОНОМИКИ	291
Муталов Абдуазим	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNING HUDUDIIY TARKIBI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	295
Ermamatov Shonazar Jumakulovich	



O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNING HUDUDİY TARKIBI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Ermamatov Shonazar Jumakulovich

UMFT "Iqtisodiyot" kafedrası dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy iqtisodiy transformatsiyalar sharoitida O'zbekistonda investitsiya faoliyatining dinamikasi va uning hududiy tarkibi tahlil qilingan. Maqolada makroiqtisodiy barqarorlik, YalM o'sishi va asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar o'rtasidagi bog'liqlik statistik ma'lumotlar asosida yoritilgan. Tadqiqot davomida investitsiya resurslarining hududlararo notekis taqsimlanishi, Toshkent shahri va resurslarga boy hududlarda konsentratsiyalashuvi hamda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan investitsiya hajmidagi tafovutlar ochib berilgan. Yakunda sanoatning qayta ishlash tarmoqlariga investitsiyalarni yo'naltirish bo'yicha xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya muhiti, asosiy kapital, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, hududiy tarkib, iqtisodiy o'sish, investitsiya jozibadorligi, makroiqtisodiy barqarorlik, diversifikatsiya.

Abstract. This article analyzes the dynamics of investment activity and its regional structure in Uzbekistan under the conditions of modern economic transformations. Based on statistical data, the correlation between macroeconomic stability, GDP growth, and fixed capital investment is highlighted. The study reveals issues of uneven distribution of investment resources among regions, their concentration in Tashkent city and resource-rich areas, and the significant disparity in investment volume per capita. Finally, conclusions are provided on prioritizing investment toward the manufacturing sectors of the industry.

Keywords: investment climate, fixed capital, foreign direct investment (FDI), regional structure, economic growth, investment attractiveness, macroeconomic stability, diversification.

Аннотация. В данной статье анализируется динамика инвестиционной деятельности и её территориальная структура в Узбекистане в условиях современных экономических трансформаций. На основе статистических данных освещается взаимосвязь между макроэкономической стабильностью, ростом ВВП и инвестициями в основной капитал. В ходе исследования выявлены проблемы неравномерного распределения инвестиционных ресурсов между регионами, их концентрация в городе Ташкенте и ресурсообеспеченных регионах, а также значительный разрыв в объеме инвестиций на душу населения. В завершение представлены выводы по приоритетности направления инвестиций в обрабатывающие отрасли промышленности.

Ключевые слова: инвестиционная среда, основной капитал, прямые иностранные инвестиции, территориальная структура, экономический рост, инвестиционная привлекательность, макроэкономическая стабильность, диверсификация.

KIRISH

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar muvaffaqiyati ko'p jihatdan mamlakatimiz hududlarining barqaror rivojlanishiga, tabiiy, ishlab chiqarish, mehnat, investitsiya resurslaridan samarali foydalanishiga, milliy va xalqaro raqobatbardoshlik darajasiga bog'liq.

Iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsiya jarayonlari keng joriy etilayotgan, yagona axborot makonining shakllanishiga olib keluvchi axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya tizimlari keng tarqalayotgan, shuningdek, ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi shakllari rivojlanayotgan hozirgi sharoitda mamlakat va uning hududlari iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb etish eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Investitsiya faoliyatining uzluksiz va samarali rivojlanishi milliy iqtisodiyot barqaror faoliyat ko'rsatishining zaruriy shartidir. Ayni vaqtda investitsiyalardan foydalanish miqyosi, tarkibi va samaradorligi ko'p jihatdan milliy xo'jalik va uning hududlari holati, istiqboli va raqobatbardoshligini belgilab beradi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'siri va ularning hududiy taqsimlanishi masalalari iqtisodiyot fani doirasida doimiy tadqiqot obyekti bo'lib kelmoqda. Klassik iqtisodiy nazariya vakillari, xususan, Adam Smit va David Rikardo investitsiyalarni (kapital jamg'arishni) ishlab chiqarishni kengaytirish va millat boyligini oshirishning asosi deb hisoblaganlar.

Zamonaviy iqtisodiyotda investitsion jarayonlarning hududiy jihatlarini o'rganishda quyidagi yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Investitsiyalarning iqtisodiy o'sishdagi rolini J.M. Keynes o'zining "multiplikator samarasi" nazariyasi orqali asoslab bergan bo'lsa, hududiy rivojlanishdagi nomutanosibliklar va "o'sish qutblari" nazariyasini F. Perru va X. Richardson kabi olimlar rivojlantirgan. Ularning fikricha, investitsiyalar tabiiy ravishda infratuzilma rivojlangan markazlarga intiladi, bu esa hududlararo iqtisodiy tafovutni keltirib chiqaradi¹.

Investitsiya muhiti jozibadorligini baholash va hududiy investitsiya siyosatini shakllantirish masalalari I. Tixomirova, A. Folomeev va V. Chernyak kabi iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ular investitsiya faolligini oshirishda davlatning institutsional rolini muhim deb hisoblaydilar².

O'zbekistonda investitsiya jarayonlarini hududiy va tarmoqlar kesimida tahlil qilish borasida iqtisodchi olimlar D. G'ozibekov, Sh. Mustafaqulov, A. Vahabov, O. Xikmatovlar salmoqli tadqiqotlar olib borganlar³. Xususan, D. G'ozibekov investitsiyalarni moliyalashtirish muammolariga e'tibor qaratgan bo'lsa⁴, Sh. Mustafaqulov investitsion jozibadorlikni belgilovchi omillarni hududlar kesimida baholash metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar bergan⁵.

Shuni ta'kidlash lozimki, yuqoridagi tadqiqotlarga qaramasdan, hozirgi kunda raqamli iqtisodiyotga o'tish va global transformatsiyalar sharoitida O'zbekistonning chekka hududlariga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilishning yangi mexanizmlari hamda hududiy disproporsiyalarni yumshatish masalalari yetarlicha o'rganilmagan. Bu esa ushbu maqolaning dolzarbligini belgilab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash usullari tashkil etadi. Xususan, O'zbekistonda 2010–2024-yillar oralig'ida YaIM va asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning o'sish sur'atlari va ulushini tahlil qilishda dinamika qatorlari usuli qo'llanildi, hududlararo investitsion tafovutlarni aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatkichlar orqali aniqlashda qiyosiy tahlildan foydalanildi. Shuningdek, umumiy makroiqtisodiy tendensiyalardan (YaIM o'sishi) aniq hududiy muammolarga (investitsiya konsentratsiyasi) o'tish orqali (induksiya va deduksiya) ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

XXI asr uchinchi o'n yilligining boshlarida jahon iqtisodiyotida mazmunan va mohiyatan ilgari ko'rilmagan transformatsiyalar kuzatilmoqda. Xalqaro xo'jalik aloqalarining murakkablashuvi, davlatlar o'rtasidagi o'zaro siyosiy va iqtisodiy munosabatlarning keskinlashuvi, global iqlim o'zgarishlari singari tashqi omillar dunyoning barcha mamlakatlaridagi investitsiya va ishbilarmonlik muhitiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda, investitsiya mablag'larini jalb qilish bo'yicha raqobat yanada keskin xususiyat kasb etmoqda.

Aynan bunday holatda qulay investitsiya muhitini yaratish asosida xorijiy kapitallarni tortish, ularni milliy xo'jalik va hududlar iqtisodiyotining muhim yo'nalishlariga yo'naltirish alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy modernizatsiya sharoitida O'zbekiston va uning hududlarida ishlab chiqarishga investitsiyalarni ko'proq jalb qilish zarurati quyidagilar orqali tushuntiriladi:

- raqobat kurashi natijasida texnologiyalarning rivojlanishi jahon bozorida zamonaviy qurilmalar va uskunalar narxining arzonlashishiga olib kelmoqda. Bunday imkoniyatdan foydalanib, ishlab chiqarishning moddiy-texnika bazasini yangilash hamda uning yordamida raqobatbardosh mahsulotlarni yaratish qisqa muddatda ushbu sarf-xarajatlarni qoplash imkonini yaratadi;

1 Кейнс Ж.М. Общая теория занятости, процента и денег. – М.: Издательство Юрайт, 2018. – 342 с

2 Тихомирова И.В. Инвестиционный климат в России: Региональные риски / Федер. фонд поддержки малого предпринимательства. – М.: Издатцентр, 1997. – 312 с.; Фоломьев А.Н. Инновационное инвестирование. М.: Наука, 2001. – 181 с.; Черняк, В. З. Управление инвестиционными проектами : учебное пособие / В. З. Черняк. – Москва : Юнити-Дана, 2017. – 351 с.

3 Вахобов А.В., Хожибакиев Ш.Х., Мўминов Н.Г. Хорижий инвестициялар. Ўқув қўлланма. - Т.: «Молия», 2010. - Б.153.; Вахобов А.В., Разыкова Г.Х. Хожибакиев Ш.Х. Иностранные инвестиции и модернизация национальной экономики / Под ред. д.э.н. проф. А.В.Вахобова. – Т.: Молия, 2011. – 300 с.


4 Ғозибеков Д.Г. Инвестицияларни молиялаштириш масалалари. – Т.: «Молия», 2003. – 332 б.

5 Мустафоқулов Ш.И. Инвестицион муҳит жозибадорлиги: назария, методология ва амалиёт. / Монография. – Т.: Маънавият, 2017. – 328 б.



- yuqori darajada qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan tovar va xizmatlarni tashqi bozorlarga chiqarishning qo'shimcha imkoniyatlari vujudga keladi;
- texnik va texnologik bazani yangilashda vaqt jihatidan ustunlikni qo'lga kiritish imkoniyati paydo bo'ladi;
- investitsiyalar ichki ehtiyojni kengaytirib, xizmat ko'rsatish va qurilish sohasining rivojlanishini rag'batlantiradi;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimenti kengayadi va milliy iqtisodiyotning tovar va hududiy tarkibi diversifikatsiyalashadi.

Qulay investitsiya muhitini shakllantirishning asosiy shartlaridan biri makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari hisoblanadi. Shu jihatdan dunyoda sodir bo'layotgan inqiroz hamda ziddiyatlar sharoitida ham O'zbekistonda YaIM hajmining o'sib borayotgani investitsiya muhitiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Zero, investorlar o'sayotgan iqtisodiyotga mablag' kiritishga harakat qiladilar (1-rasm)



1-rasm. O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning yillar davomida o'sish dinamikasi, foizda⁶

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Yangi O'zbekistonda YaIM barqaror tarzda o'smoqda. Agar 2016–2019-yillarda yalpi ichki mahsulotning o'rtacha qo'shimcha o'sish sur'ati 5,35 foizni tashkil etgan bo'lsa, koronavirus pandemiyasining iqtisodiy tizimga zararli ta'siri oqibatida 2020-yilda 1,9 foizgacha pasaydi. Ammo mamlakatimizda amalga oshirilgan samarali pandemiyaga qarshi chora-tadbirlar va chuqur iqtisodiy islohotlar natijasida 2021-yildan boshlab iqtisodiy o'sish sur'atlari tiklandi va 2021–2024-yillarda 6,4 foizga yetdi. Ta'kidlash lozimki, mamlakatimizning barcha hududlarida iqtisodiy o'sish sur'atlari ijobiy dinamikani namoyish etmoqda (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda investitsiya faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari⁷

	2010	2015	2020	2021	2022	2023	2024
YaIM, mlrd. so'm	78936,6	221350,9	605514,9	738425,2	896617,9	1066569,0	1454973,9
YaIMning o'sish sur'ati, %	107,1	107,2	102,0	107,4	105,7	106,0	106,5
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, mlrd. so'm	15338,7	41670,5	202000,1	244962,6	269857,5	352064,1	493652
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning o'sish sur'ati, %	104,2	109,4	95,6	102,9	100,2	122,1	127,6
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning YaIM-dagi ulushi, %	19,4	18,8	34,8	33,3	30,1	33,0	33,9
Xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd. so'm	4340,8	8309,5	86647,0	104467,3	112219,5	187884,8	333800

6 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (stat.uz) ma'lumotlari asosida tuzilgan.

7 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (stat.uz) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Xorijiy investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi, %	28,3	19,9	42,9	42,6	41,6	53,4	67,6
To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar, mlrd. so'm	3850,0	6125,6	28740,5	30149,2	41521,2	84311,6	150500
To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi, %	25,1	14,7	14,2	12,3	13,7	23,9	30,4
To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning jami xorijiy investitsiyalardagi ulushi, %	88,7	73,7	44,8	28,8	37,0	44,9	45,1

Barqaror iqtisodiy o'sish va investitsiyalar o'rtasidagi o'zaro ijobiy bog'liqlikdan kelib chiqqan holda bugungi kunda O'zbekiston va uning hududlari iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki shart-sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida O'zbekiston investitsiya faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarida ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda.

Tahlillar shundan dalolat beradiki, O'zbekistonda 2010–2024-yillarda yalpi ichki mahsulotning nominal hajmi 13,5 martaga, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning nominal hajmi esa 22,9 martaga oshgan. 2024-yilda O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb etilgan jami investitsiyalar hajmi 27,6 foizga ko'paygan.

Ayni vaqtda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan investitsiya me'yorining sezilarli darajada oshganligini ta'kidlash lozim. Agar 2010-yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 19,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 33,9 foizga yetdi.

Mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2024-yilda 333,8 trln. so'm asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirildi. Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami investitsiyalardagi ulushi 2010-yilda 28,3 foizdan 2024-yilda 67,6 foizgacha o'sdi. Bu davrda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi 25,1 foizdan 30,1 foizgacha oshdi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hamda O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlarning jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmidagi ulushi mos ravishda 92,9 foiz va 7,1 foizni tashkil etdi. O'z navbatida, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 150,5 trln. so'm yoki jamiga nisbatan 45,1 foizni, boshqa investitsiyalar va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar 159,6 trln. so'mni yoki jamiga nisbatan 47,8 foizni tashkil etdi.

Aytish joizki, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini ta'minlashda xorijiy kapital qo'yilmalari tarkibida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar salmog'ining sezilarli darajada yuqori ulushga ega bo'lishi ijobiy holat hisoblanadi, chunki davlat kafolatisiz mamlakat iqtisodiyotiga investorlar kapital mablag'larini yo'naltirishlari ularning milliy iqtisodiyotda faoliyat yuritish jarayonida kelib chiqishi mumkin bo'lgan barcha risklarni o'z zimmlariga olganliklaridan dalolat beradi. Shu sababli to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmini oshirish maqsadga muvofiq.

2-jadval ma'lumotlari tahlili shundan dalolat beradiki, 2016-yilda jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 66,8 foizi eng yuqori ulushga ega bo'lgan oltita hudud (Toshkent shahri, Qashqadaryo, Buxoro, Toshkent viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Samarqand viloyatlari) hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2024-yilda eng yuqori ko'rsatkichga ega 6 ta hudud (Toshkent shahri, Toshkent, Namangan, Buxoro, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlari)ning ulushi 67 foizni tashkil etdi. 2024-yilda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 18,2 foizi Toshkent shahri, 14,4 foizi Toshkent, 10,7 foizi Namangan, 10,2 foizi Buxoro, 7 foizi Qashqadaryo, 6,6 foizi Navoiy viloyatlarida o'zlashtirildi. Qolgan hududlarning jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi sezilarli darajada past. Ayniqsa, Surxondaryo (3,3 foiz), Sirdaryo (2,2 foiz) va Xorazm (3,1 foiz) viloyatlarida o'zlashtirilgan investitsiyalarning ulushi sezilarli darajada past (2-jadval).

2-jadval. O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalarning hududiy tarkibi⁸

	2016		2024		2024 y.da 2016 y.ga nisbatan ulushining o'zgarishi
	Mrld. so'm	%	Mrld. so'm	%	
O'zbekiston Respublikasi	51232	100	507490,2	100	-
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3778,3	7,4	20567,7	4,0	-3,4
Andijon	2188,5	4,3	28668	4,7	0,4
Buxoro	5922,9	11,6	51663,9	10,2	-1,4
Jizzax	1449,7	2,8	23515,4	4,6	1,8
Qashqadaryo	7304,4	14,3	35482,5	7,0	-7,3
Navoiy	2963,2	5,8	33550,2	6,6	1,2
Namangan	2824,5	5,5	54231,4	10,7	5,2
Samarqand	3623,5	7,1	28946,9	5,7	-1,4
Surxondaryo	2142,4	4,2	16593,1	3,3	-0,9
Sirdaryo	1322,9	2,6	11406,3	2,2	-0,4
Toshkent	4238,7	8,3	73325,12	14,4	6,1
Farg'ona	2643,6	5,2	21542,7	4,2	-1
Xorazm	1560,5	3,0	15624,1	3,1	0,1
Toshkent shahri	9268,9	18,1	91642,8	18,1	0

Ta'kidlash lozimki, 2024-yilda qator hududlarda asosiy kapitalga investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi, jumladan, Namangan viloyatida 2023-yilga nisbatan asosiy kapitalga investitsiyalar 157 foizga, Qoraqalpog'iston Respublikasida 45,6 foizga, Qashqadaryoda 45,2 foizga, Buxoroda 45,1 foizga, Andijonda 36,9 foizga, Jizzaxda 41,5 foizga, Toshkent viloyatida 33,2 foizga o'sdi. Ayni vaqtda Surxondaryo (20,7 foiz) va Sirdaryo (35,7 foiz) viloyatlarida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi sezilarli darajada qisqardi.

So'nggi yillarda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi bo'yicha hududlararo tafovut ancha katta bo'lib, u o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda.

Agar 2016-yilda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha eng katta (Toshkent shahri) va eng kichik (Andijon viloyati) ko'rsatkichlar o'rtasidagi nisbat 5,2 martani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich (Navoiy va Farg'ona viloyatlari ko'rsatkichlari o'rtasidagi nisbat) 5,9 martagacha oshdi. Ayni vaqtda 2016-yilda aholi jon boshiga investitsiyalar hajmi bo'yicha 6 ta hudud respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori natija qayd etgan bo'lsa, 2024-yilda ham bu holat saqlanib qoldi. Shunga qaramasdan, hududlar bo'yicha aholi jon boshiga investitsiyalar hajmi bir-biridan sezilarli darajada farqlanishini ta'kidlash lozim.

Ma'lumki, xorijiy investitsiyalarni jalb etish har bir hududda barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashda hamda ularning raqobatbardoshlik darajasini oshirishda muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda O'zbekiston va uning hududlari iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasida ko'plab ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2024-yilda O'zbekistonda 333,8 trln. so'm (dollar ekvivalentida 26,4 mlrd. AQSH dollari) yoki 2023-yilga nisbatan 53,1 foiz ko'p asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirildi (3-jadval).

3-jadval. O'zbekiston hududlarida aholi jon boshiga aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd.so'm⁹

	2016	2024
O'zbekiston Respublikasi	1608,6	13652,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2094,1	10201,2
Andijon	745,3	8363,6
Buxoro	3237,6	25073,5
Jizzax	1125,1	15445,3
Qashqadaryo	2389,2	9856,3
Navoiy	3168,2	30921,8
Namangan	1074,8	17500,2

8 stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari

9 stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Samarqand	1001,6	6806,4
Surxondaryo	879,1	5699,5
Sirdaryo	1660,3	12365,9
Toshkent	1507,5	23806,1
Farg'ona	747,8	5250,3
Xorazm	885,7	7757,7
Toshkent shahri	3848,1	29785,1

Qayd etish lozimki, xorijiy investitsiya va kreditlarning ham asosiy qismi to'rtta hudud — Toshkent viloyati (50 trln. so'm), Namangan (44 mlrd. so'm), Buxoro (40,4 mlrd. so'm) viloyatlari va Toshkent shahri (40,2 mlrd. so'm) tomonidan o'zlashtirilgan bo'lib, ushbu hududlarning 2024-yilda respublika iqtisodiyotida o'zlashtirilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmidagi birgalikdagi ulushi 52,3 foizni tashkil etadi.

Xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirishda bunday hududiy tafovutlarning shakllanishi, eng avvalo, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga yo'naltirilgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish bilan bog'liq. Shu bilan birga, xorijiy investorlar o'z mablag'larini yuqori daromad keltiradigan va tavakkalchilik darajasi past sohalarga sarflashni afzal biladilar. Xorijiy investitsiyalar uchun eng yuqori foyda me'yori va qoplanish muddatining qisqaligi tog'-kon sanoati, shu jumladan, xom neft va tabiiy gaz qazib chiqarishda qayd etilmoqda.

2024-yilda to'g'ridan-to'g'ri va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar hisobidan Buxoro viloyatida MTO (methanol to olefin) texnologiyasi asosida gaz-kimyo majmuasini qurish, Surxondaryo viloyatida gaz-kimyo majmuasini qurish, Toshkent viloyatida quvvati 200 MVt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasini qurish, Qoraqalpog'iston Respublikasida Tebinbuloq temir ruda konini ishlab chiqish va metallurgiya majmuasini qurish (1-bosqich), Buxoro viloyatida quvvati 500 MVt bo'lgan quyosh elektr stansiyasini qurish, Qashqadaryo viloyatida quvvati 500 MVt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasini qurish, Buxoro viloyati Peshku tumanida quvvati 500 MVt bo'lgan shamol elektr stansiyasini qurish ishlari amalga oshirildi (4-jadval).

4-jadval. O'zbekiston Respublikasi hududlarida 2024-yilda xorijiy investitsiyalar va kreditlarni o'zlashtirish¹⁰

	Jami, trln. so'm	Shu jumladan		
		To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'R kafolati ostida xorijiy investitsiyalar	Boshqa xorijiy investitsiyalar va kreditlar
O'zbekiston Respublikasi	333,8	150,5	23,6	159,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	14,4	2,2	1,2	11,0
Andijon	21,2	11,5	0,4	9,3
Buxoro	40,4	23,0	2,2	15,2
Jizzax	17,6	10,9	0,5	6,2
Qashqadaryo	23,9	7,2	3,9	12,8
Navoiy	27,6	11,0	2,5	14,1
Namangan	44,0	17,9	0,6	25,5
Samarqand	15,1	6,4	1,3	7,4
Surxondaryo	10,1	5,8	0,9	3,4
Sirdaryo	7,9	5,9	0,1	1,9
Toshkent	50,0	18,6	2,3	29,1
Farg'ona	12,7	9,1	0,3	3,3
Xorazm	8,8	2,2	0,5	6,1
Toshkent shahri	40,2	18,6	7,0	14,6

Albatta, bunday loyihalarning amalga oshirilishi mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlovchi strategik ahamiyatga ega ishlab chiqarish turlarining rivojlanishiga olib keladi. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalarni jalb etishda tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga asoslangan sanoatning qayta ishlash tarmoqlariga alohida ustuvorliklar berish muhim ahamiyat kasb etadi.

10 stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida O'zbekistonda investitsiya faoliyatining hozirgi holati va hududiy tarkibi bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

- o'tgan 14 yil ichida investitsiyalarning YalMdagi ulushi 19,4 foizdan 33,9 foizga yetishi mamlakatda faol investitsiya siyosati olib borilayotganligini ko'rsatadi. Bu esa barqaror iqtisodiy o'sishning muhim drayveridir;
- investitsiya resurslarining asosiy qismi (67 foizi) hamon 6 ta yirik hududda konsentratsiyalashgan. Aholi jon boshiga investitsiya hajmi bo'yicha hududlararo tafovutning 5,9 martagacha oshishi chekka hududlarda investitsion jozibadorlikni oshirish bo'yicha qo'shimcha mexanizmlar zarurligini ko'rsatadi;
- xorijiy kapital tarkibidagi o'zgarishlar: 2024-yilda xorijiy investitsiya va kreditlarning jami investitsiyalardagi ulushi 67,6 foizga yetishi iqtisodiyotning tashqi moliya manbalariga bog'liqligi oshganidan dalolat beradi. Bunda davlat kafolatisiz to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ulushini yanada ko'paytirish iqtisodiy xavfsizlik nuqtayi nazaridan muhim.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, fikrimizcha, investitsiyalarni jalb qilishda "markazdan chekkaga" tamoyili asosida Surxondaryo, Sirdaryo va Xorazm kabi past ko'rsatkichli hududlar uchun maxsus soliq va bojxona imtiyozlarini joriy etish, investitsiya oqimini faqat resurs qazib olishdan (tog'-kon sanoati) yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi (klaster tizimi) tarmoqlarga yo'naltirishni rag'batlantirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Кейнс Ж.М. Общая теория занятости, процента и денег. – М.: Издательство Юрайт, 2018. – 342 с
2. Тихомирова И.В. Инвестиционный климат в России: Региональные риски / Федер. фонд поддержки малого предпринимательства. — М.: Издатцентр, 1997. – 312 с.
3. Фоломьев А.Н. Инновационное инвестирование. М.: Наука, 2001. – 181 с.
4. Черняк, В. 3. Управление инвестиционными проектами : учебное пособие / В. 3. Черняк. – Москва : Юнити-Дана, 2017. – 351 с.
5. Вахобов А.В., Хожибақиев Ш.Х., Мўминов Н.Г. Хорижий инвестициялар. Ўқув қўлланма. - Т.: «Молия», 2010. - Б.153.
6. Вахобов А.В., Разыкова Г.Х. Хожибақиев Ш.Х. Иностранные инвестиции и модернизация национальной экономики / Под ред. д.э.н. проф. А.В.Вахобова. – Т.: Молия, 2011. – 300 с.
7. Ғозибеков Д.Г. Инвестицияларни молиялаштириш масалалари. – Т.: "Молия", 2003. – 332 б.
8. Мустафокулов Ш.И. Инвестицион муҳит жозибадорлиги: назария, методология ва амалиёт. / Монография. – Т.: Маънавият, 2017. – 328 б.
9. stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy sayti ma'lumotlari

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100